



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalar va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 412 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	
Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos	148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna	
Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati	153
Kamilova Gulzoda	
Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya	157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna	
Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish	161
Shukurullayeva Madina	
Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari	168
Ahmedov Akrom Abzalovich	
The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan	174
Akhad Akhmedov	
Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) ..	177
Boyurayeva Mamura Uroyimovna	
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloevich	
Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	188
Qodirova Nigora Farhodovna	
Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili	193
Sharapov Atabek Gayrat uli	



“Mustaqil fikrlash”, “kompetensiya”, “kompetentlik”, “fikrlash kompetensiyasi” tushunchalarining pedagogik mazmuni	196
Kadirova Zarina Ilhomovna	
Tibbiy ingliz tili darslarida ko'p komponentli blended learning strategiyalarining qo'llanishi	202
Rashidova Nodira Xabibullayevna	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyasini rivojlantirish jahon olimlari nigohida.....	205
Mamazoirova Jangil Xamdamovna	
Magistratura tadqiqot amaliyotining bo'lajak fizika o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni	209
Parmanov Jamshid Tag'aymurotovich	
Umumta'lim maktablari matematika to'garagida sferaning elementlarini o'rganish metodikasi	214
Jumayev Erkin Ergashevich, Omonov G'olibjon Tolibovich, Shaxnoza Xolmurodova Zoir qizi	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli va interaktiv texnologiyalar vositasida o'quvchilarning vaqtni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish.....	219
Norova Nargiza Xalmamat qizi	
Oliy o'quv yurtlarida amaliy mashg'ulotlar – bakalavr yo'nalishidagi matematiklarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi omil.....	224
Abduraxmonov Abdumo'min	
Bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda CDIO texnologiyasi va sanoat integratsiyasining samaradorligi	228
Baxronov Rustam Rajabovich	
O'smir o'quvchilarda ijodiy faollikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslarini o'rganish tarixi.....	231
Botirov Zoir Nuriddin o'g'li	
Husnixatga o'rgatish tamoyillari.....	235
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Muhammadaliyeva Xosiyatxon Xaydaraliyevna	
O'smirlarda suitsidal xavf bilan bog'liq tajovuzkorlik va psixologik determinantlarning kompleks diagnostikasi.....	240
Nahalboyeva Nigora Turdi qizi	
Raqamli muhitda yoshlar ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari	245
Sangirova Nilufar Sayfidinovna	
O'smirlilik davrida psixologik o'zgarishlar: omillar, xususiyatlar va psixologik yondashuvlar	251
Usmonova Munira Sayfiddinovna	
Nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda psixologik intervensiyalar samaradorligi	256
Axmedova Munavvar Numanjanovna	
Tarix darslarida wordmint: o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirishning innovatsion usuli	261
Eshankulova Ma'mura Davlatovna	
Zamonaviy fizikani oliy ta'limda o'qitishning konseptual-metodologik muammolari	265
Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li	
Menejment ta'limida ekonometrik tahlil natijalarini boshqaruv qarorlariga transformatsiya qilishning didaktik modeli	269
Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi	
Zamonaviy psixologiya va pedagogikada shaxsga xos universal ta'limiy faoliyatlarining ahamiyati.....	273
Shomirzayeva Nargiza Sherali qizi	
Jismoniy tarbiya jarayonini individuallashtirishda raqamli monitoring texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	277
Axmedova Sarvinoz Azatovna	
Umumta'lim maktablari tarix darslarida immersiv texnologiyalarini qo'llash	282
Rasuljon Atamuratov	
Talaba-kurashchilarning mashg'ulot yuklamalarini individual me'yorlash va uning pedagogik asoslari	287
Davletova Ullijon Sapavoy qizi	



Talabalarida axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	290
Ergashev Bunyod Shokir o'g'li	
Umumta'lim maktablari o'qituvchilarida kasbiy deformatsiya (burnout)ni oldini olishning psixologik shart-sharoitlari	296
Mardiyeva Dilarom Sapparboyevna	
Turning Traditional Classrooms Upside Down: Main Principles of PBL (Project-Based Learning)	300
Hakimova Halimakhon Hamzayevna	
Ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda zamonaviy yondashuv	305
Norqulova M. B.	
Ta'lim tashkilotlarida innovatsion ta'lim muhitining pedagogik mohiyati va tarkibiy komponentlari	311
Nosirov Asliddin Sadriddinovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlar targ'ibotiga innovatsion yondashuv	316
Sh. Sh. Abdurasulova	
Terminologik kompetensiya bo'lajak shifokor kasbiy kompetentligining komponenti sifatida	320
Namazova Munavvar Oltibekovna	
Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar (FSMU, BBB, Klaster) vositasida ta'lim samaradorligini oshirish...	323
Abduvahobova Feruzabonu Kozim qizi	
Pedagogical Strategies for Integrating the Life and Literary Heritage of Ibrayim Yusupov Into Modern Education	326
Atajanova Gulsara Baxit qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv motivatsiyasini shakllantirishda oila-maktab hamkorligining o'rni ..	329
Karimova Shoxsanam Islomxon qizi	
Using Model Essays to Develop IELTS Writing Task 2 Performance: An Evidence-Based Approach to Noticing, Analysis, Imitation and Independent Writing.....	333
Otakulova Dildora Hakimbek qizi	
Uzunlikka sakrovchi yengil atletikachilarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlar.....	337
Ro'zimatova Shohista Boltaboy qizi	
Raqamli kommunikatsiya muhitida an'anaviy qadriyatlar transformatsiyasi: internet va ijtimoiy tarmoqlarning madaniy idrok hamda ijtimoiy me'yorlarga ta'siri	342
Shodiyev Jasur Xolmatjonovich	
Professional Competence of Specialists Working With Older Adults: Conceptual Requirements.....	349
Ikromova Sitara Akbarovna	
The Effect of Corpus-Based Learning on Psychology Students' Professional English Communication	353
Pulatova Durdona Ravshanovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirishga oid jahon tajribalari tahlili.....	357
Djabbarov Farrux Tirkashevich	
Talabalarda vaqtini idrok qilish va boshqarishga qaratilgan nazariy-metodologik konsepsiyalar hamda tamoyillar tahlili	361
Solayev Og'abek Ilhombek o'g'li	
Tibbiy tayyorgarlik sifatini oshirish vositasi sifatida immersiv ta'lim muhitlari	367
Namazova Munavvar Oltibekovna	
Milliy kurash vositalari asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining etnopedagogik kompetensiyasini shakllantirish modelini takomillashtirish	370
Jurayev Sayidmurat Safarovich	
"Uglevodlar" bo'limini o'qitishni axborot kommunikatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirish metodikasi (umumiy o'rta ta'lim maktablari 10-sinflar o'quvchilari misolida).....	374
Rasulov Mirzobek Toxirovich	
"O'simliklar fiziologiyasi" fanining o'quv mazmunini STEAM yondashuvi asosida takomillashtirish metodikasi.....	382
Xoliqulova Gulchehra Alimardon qizi	



Литературный текст как пространство мышления: авторская методика интерпретационного обучения студентов в вузе	389
Жабборова Гулчихра Жобировна	
Развитие исследовательской компетентности будущих учителей истории посредством работы с художественно-историческими источниками	393
Равшан Хакимов	
Oilaviy muhit va ota-ona munosabatlarining o'smir qizlar yolg'izligiga ta'siri	397
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Tabiiy fanlarni raqamli ta'lim muhitida o'qitishning metodik modeli va uning samaradorlik ko'rsatkichlari	401
Ismoilov Nodirbek Kodirjonovich	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish va yozishni o'rgatish metodikasini takomillashtirish yo'llari	408
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA O'QISH VA YOZISHNI O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich

A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti doktoranti

Orcid ID: 0009-0002-4074-3557

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish va yozishni o'rgatish metodikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Tahlil natijasida "olti devorli sinfxona" modeli, multisensor harf kublari va interaktiv daftarlar o'qish va yozishni o'rgatishda o'zaro bog'langan samarali vositalar sifatida aniqlandi. Mazkur yondashuv o'quv jarayonini ko'rish, taktil sezgi, harakat, yozma faoliyat va hamkorlik bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Xulosa sifatida inklyuziv ta'limda o'qish va yozishni o'rgatish metodlari, ta'lim muhiti va interaktiv vositalarni yagona tizim asosida tashkil etish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, o'qish, yozish, tushunib o'qish, multisensor ta'lim, hamkorlik, ta'lim muhiti, harf kublari, interaktiv daftar.

Abstract: This article analyzes the issues of improving the methodology of teaching reading and writing to primary school students in an inclusive education environment. The purpose of the study is to identify effective approaches that contribute to the development of reading and writing skills while taking into account students' individual educational needs. The methods of analyzing scientific sources, comparison, and generalization were used in the study. As a result of the analysis, the "six-wall classroom" model, multisensory letter cubes, and interactive notebooks were identified as interconnected and effective tools for teaching reading and writing. This approach makes it possible to integrate the learning process with visual perception, tactile sensation, movement, written activity, and collaboration. In conclusion, the feasibility of organizing methods of teaching reading and writing, the educational environment, and interactive tools within a unified system in inclusive education was substantiated.

Key words: inclusive education, primary education, reading literacy, reading, writing, reading comprehension, multisensory learning, collaboration, educational environment, letter cubes, interactive notebook.

Аннотация: В данной статье проанализированы вопросы совершенствования методики обучения чтению и письму учащихся начальных классов в условиях инклюзивного образования. Цель исследования заключается в определении эффективных подходов, способствующих развитию навыков чтения и письма с учётом индивидуальных образовательных потребностей учащихся. В исследовании использованы методы анализа научных источников, сравнения и обобщения. В результате анализа модель "классной комнаты с шестью стенами", мультисенсорные буквенные кубики и интерактивные тетради были определены как взаимосвязанные эффективные средства обучения чтению и письму. Данный подход позволяет сочетать учебный процесс со зрительным восприятием, тактильными ощущениями, движением, письменной деятельностью и сотрудничеством. В заключение обоснована целесообразность организации методов обучения чтению и письму, образовательной среды и интерактивных средств в инклюзивном образовании на основе единой системы.

Ключевые слова: инклюзивное образование, начальное образование, читательская грамотность, чтение, письмо, осознанное чтение, мультисенсорное обучение, сотрудничество, образовательная среда, буквенные кубики, интерактивная тетрадь.



KIRISH

O'qish va yozish insonning axborotdan foydalanishi, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishi hamda ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishini ta'minlovchi fundamental ko'nikmalardir. O'qish bilim olish, dunyoqarashni kengaytirish, turli nuqtayi nazarlarni anglash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilsa, yozish fikrlarni tartibga solish va ularni aniq ifodalash imkonini beradi. Shu jihatdan o'qish va yozishga o'rgatish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi^[5].

O'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishning dastlabki bosqichi, ayniqsa, muhim bo'lib, ushbu davrda bolalarning til, bilish va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur poydevor yaratiladi. Fundamental savodxonlik ko'nikmalarining shakllanishi o'quvchining keyingi ta'lim faoliyatiga, bilishga bo'lgan qiziqishiga va o'quv motivatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi^[9].

Bugungi kunda ta'lim tizimida turli ta'lim va rivojlanish ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarning birgalikda ta'lim olishini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanib, inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi har bir o'quvchi uchun teng imkoniyat yaratish, uning individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish hamda qo'llab-quvvatlovchi va empatik ta'lim muhitini shakllantirishdan iborat^[8].

Shu sababli inklyuziv ta'limda o'qish va yozishni o'rgatish an'anaviy yagona metod asosida emas, balki o'quvchilarning individual xususiyatlari va ta'lim ehtiyojlarini hisobga oluvchi moslashuvchan metodlar asosida tashkil etilishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarning o'rganish sur'ati, qobiliyati va ta'lim olish uslubi bir-biridan farq qilishi mumkin.

T. Booth va M. Ainscow inklyuziv ta'limni barcha o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini ta'minlash va mavjud to'siqlarni kamaytirishga qaratilgan yondashuv sifatida izohlaydilar. Shu bois o'qituvchi o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishi, turli metod va o'quv materiallaridan foydalanishi hamda zarur hollarda individual ta'lim rejalarini ishlab chiqishi muhimdir.

D. Rose va A. Meyer tomonidan ishlab chiqilgan universal ta'lim dizayni konsepsiyasida o'quv materiallarini turli shakllarda taqdim etish, o'quvchilarning bilimlarini turli usullarda namoyon etishiga imkon yaratish hamda ularning ta'limga qiziqishini qo'llab-quvvatlash muhimligi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuv inklyuziv sharoitda o'qish va yozishni o'rgatishda moslashuvchan va multisensor metodlardan foydalanish zarurligini asoslaydi.

L. S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolaning bilim va ko'nikmalari ijtimoiy muloqot hamda hamkorlik jarayonida rivojlanadi. Shu nuqtayi nazardan, o'qish va yozishga o'rgatish jarayonini hamkorlikka asoslangan faoliyatlar bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning tengdoshlari va o'qituvchilari bilan muloqot qilish, o'z fikrini ifodalash, boshqalarning fikrini tinglash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

J. Chall va M. Clay tadqiqotlarida boshlang'ich bosqichda o'qish ko'nikmalarini izchil shakllantirish, matnni tushunish va o'quvchining individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishning ahamiyati yoritilgan.

L. Ehri esa o'qish va yozishni o'zlashtirishda harf-tovush munosabatlarini anglash, so'zlarni tanish va mazmunli o'qish ko'nikmalarining bosqichma-bosqich rivojlanishini muhim deb hisoblaydi.

Mazmunli o'qish jarayonida o'quvchi ilgari egallagan bilimlari bilan yangi axborot o'rtasida bog'liqlikni aniqlaydi, matndagi dalillarga tayangan holda xulosalar chiqaradi va yangi ma'lumotni o'z tajribasi bilan uyg'unlashtiradi. Natijada o'qish oddiy axborot olish vositasidan tafakkur va dunyoqarashni rivojlantiruvchi faoliyatga aylanadi.

Shuningdek, B. Fraserning ta'lim muhiti bo'yicha tadqiqotlarida sinfdagi hamkorlik, jipslik, o'zaro qo'llab-quvvatlash va ijobiy psixologik muhit o'quvchilarning ta'lim faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Shu sababli inklyuziv sinf muhitini tartibli, qo'llab-quvvatlovchi, hamkorlikka va o'zaro hurmatga asoslangan tarzda tashkil etish o'qish va yozish ko'nikmalarini samarali rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish va yozishni o'rgatish metodikasini takomillashtirish masalasi nazariy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Shuningdek, o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish, multisensor yondashuv, hamkorlikka asoslangan faoliyatlar hamda interaktiv ta'lim vositalarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan ilmiy manbalar tahlili inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish va yozishni o'rgatish samaradorligi ta'lim muhiti, multisensor yondashuv, interaktiv vositalar va hamkorlikka asoslangan faoliyatlarning uyg'unligiga bog'liqligini ko'rsatdi. Tahlil natijasida M. Ş. Bülbül tomonidan taklif etilgan "olti devorli sinfxona" modeli, multisensor harf kublari va interaktiv daftarlar savodxonlikni shakllantirishning o'zaro bog'langan vositalari sifatida ajratildi^[1].

"Olti devorli sinfxona" modelining asosiy afzalligi sinfxonaning barcha qismlarini - devorlar, derazalar, raqamli ekranlar, doska, shift va polni - savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yagona ta'limiy makonga aylantirishdan iborat. Bunday muhit o'quvchini o'qish va yozish faoliyatiga doimiy jalb etish, o'quv materiallarini real hayotiy obyektlar bilan bog'lash hamda ta'lim mazmunini turli ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, interaktiv daftarlar sinfdagi umumiy ta'lim muhiti bilan o'quvchining individual faoliyati o'rtasida bog'lovchi vazifasini bajarishi aniqlandi. "Devor - kub - daftar - devor" dinamikasi orqali o'quvchi ko'rgazmali materialni kuzatadi, tegishli kub bilan amaliy faoliyat olib boradi, natijani daftarida aks ettiradi va uni yana sinf muhitidagi material bilan bog'laydi. Bu jarayon o'qish va yozishni ko'rish, harakat, taktil tajriba hamda yozma faoliyat bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Umuman olganda, o'quv natijalari o'qish va yozishni o'rgatishda alohida metod yoki vositadan foydalanishdan ko'ra, ta'lim muhiti, multisensor vositalar va individual yozma faoliyatni yagona tizimga birlashtirish samaraliroq yondashuv ekanligini ko'rsatadi. Mazkur tizim inklyuziv ta'limda o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning mustaqil faoliyati, muloqoti va hamkorlikdagi ishtirokini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan yondashuvlardan ko'rinadiki, inklyuziv ta'lim sharoitida o'qish va yozishni o'rgatish samaradorligini oshirish uchun faqat darslik yoki an'anaviy o'qitish metodlaridan foydalanish yetarli emas. O'quvchining ta'lim muhiti ham savodxonlikni shakllantirish jarayonining faol tarkibiy qismiga aylanishi kerak.

"Olti devorli sinfxona" modeli ushbu nuqtayi nazardan sinfxonaning mavjud imkoniyatlaridan kompleks foydalanishga asoslanadi. Devorlar, derazalar, raqamli vositalar, doska, shift va polning ta'limiy maqsadda ishlatilishi o'quvchining o'rganish jarayonini tabiiy va uzluksiz faoliyatga aylantiradi^[1].

Multisensor harf kublari esa mazkur muhitni jismoniy harakat va taktil tajriba bilan boyitadi. O'quvchi harfni faqat ko'ribgina qolmay, uni ushlab ko'rishi, joylashtirishi, boshqa harflar bilan birlashtirishi va so'z hosil qilishi mumkin. Bu esa o'qish va yozishni o'rgatishda turli sensor kanallardan foydalanish imkonini beradi. Interaktiv daftarlar esa sinf muhiti va individual o'quv faoliyati o'rtasida bog'lovchi vosita vazifasini bajaradi. Shu tariqa sinfxona, kublar va daftar yagona multisensor savodxonlik tizimining o'zaro bog'langan elementlariga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish va yozishni o'rgatish metodikasini takomillashtirish o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish, tushunib o'qishni rivojlantirish, hamkorlikka asoslangan faoliyatlarni tashkil etish va motivatsion ta'lim muhitini yaratishni talab etadi.

Tahlil qilingan materiallar asosida ta'lim muhitini takomillashtirishning samarali yo'nalishlaridan biri sifatida "olti devorli sinfxona" modelini ko'rsatish mumkin. Mazkur model sinfxonaning barcha qismlaridan ta'limiy maqsadlarda foydalanish orqali o'quvchilar uchun doimiy savodxonlik muhitini yaratadi.

Multisensor harf kublaridan foydalanish o'qish va yozishni ko'rish, eshitish, taktil sezgi, harakat va hamkorlik asosida tashkil etish imkonini beradi. Harf kublarining mustahkam, taktil jihatdan qulay, turli o'lchamdagi, kontrastli va inklyuziv dizaynga ega bo'lishi turli ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilar uchun ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Interaktiv daftarlarni mazkur tizimga kiritish esa o'quvchining sinf muhiti, kub va individual yozma faoliyati o'rtasidagi aloqani saqlashga xizmat qiladi. Natijada "devor - kub - daftar - devor" dinamikasiga asoslangan yaxlit multisensor savodxonlik muhiti shakllanadi.

Shunday qilib, inklyuziv boshlang'ich ta'limda o'qish va yozishni o'rgatishning samaradorligini oshirish uchun o'qitish metodlari, ta'lim muhiti va interaktiv o'quv vositalarini yagona tizim sifatida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning mustaqilligi, muloqotga kirishishi, hamkorlik qilishi va ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bülbül, M.Ş. (2024). Enhancing reading and writing instruction in inclusive environments: A meaningful and collaborative approach. Educational Research & Implementation, 1(1), 1-20. <https://doi.org/10.14527/edure.2024.01>
2. Cook, L.K., & Mayer, R.E. (1983). Reading strategies training for meaningful learning from prose. In Cognitive strategy research: Educational applications (pp. 87-131). New York, NY: Springer New York.



3. Ernazarov G'. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma (4-nashri). T.: "ILM ZIYO", 2013. – 184 b.
4. Fälth, L., & Selenius, H. (2022). Primary school teachers' use and perception of digital technology in early reading and writing education in inclusive settings. *Disability and Rehabilitation: Assistive Technology*, 1-10. <https://doi.org/10.1080/17483107.2022.2125089>
5. Fitzgerald, J., & Shanahan, T. (2000). Reading and writing relations and their development. *Educational Psychologist*, 35(1), 39-50. https://doi.org/10.1207/S15326985EP3501_5
6. Fraser, B.J. (1998). Classroom environment instruments: Development, validity and applications. *Learning Environments Research*, 1, 7-33.
7. Irkinovich, N.R., & Izatullaevna, I.I. (2022). Methods for teaching reading. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 15, 47-50.
8. Mattson, E.H., & Roll-Pettersson, L. (2007). Segregated groups or inclusive education? An interview study with students experiencing failure in reading and writing. *Scandinavian Journal of Educational Research*, 51(3), 239-252.
9. Shanahan, T. (2006). Relations among oral language, reading, and writing development. In C.A.MacArthur, S.Graham, & J.Fitzgerald (Eds.) *Handbook of writing research* (pp.171-183). Newyork: The Guilford Press.
10. To'raqulov X.A., Abdullayeva B.S., To'raqulova I.X. Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi. Darslik. - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020, 476 bet.
11. Vaughn, S., Hughes, M. T., Schumm, J. S., & Klingner, J. (1998). A collaborative effort to enhance reading and writing instruction in inclusion classrooms. *Learning Disability Quarterly*, 21(1), 57-74.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.